

OGOHIYNING OLAM GADO MAN HAM GADO G'AZALI TAHLILI

Nukus DPI talabasi - Suxanova Maxrijemal
Nukus DPI talabasi - Qutlimuratova Ma'fura

Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy o'zbek mumtoz adabiyotining Alisher Navoiydan keyingi buyuk siymolardan biridir. Ogahiy xalqimiz ma'daniyati, adabiyoti va ilm-fani tarixida iste'dodli shoir, mohir tarjimon, yirik muarrix, ma'rifatparvar shaxs sifatida yorqin iz qoldirgan. Shoirning "Ta'viz ul-oshiqin" ("Oshiqlar tumori") nomli ulkan devoni bir necha janrlarda yaratilgan 10 ming baytdan ko'p she'rdan tarkib topgan. Ogahiy ijodining qimmatli va harakterli tomoni shundaki, u Alisher Navoiy ijodiyotida yuqori pog'onaga ko'tarilgan adabiyotdagi eng ilg'or, eng xalqchil g'oyaviy-badiiy an'analarni XIX asr sharoitida yuksak darajada rivojlantirdi. Ogahiy she'riyati har qanday o'rtamiyonachilikdan tamomila xoli yuksak ishqiyy-tasavvufiy she'riyatdir. Ogahiy she'riyati mazmunan chuqur, falsafiy teran bo'lishi bilan birga badiiy jihatdan ham barkamol asarlardir. Uning tamsillar olami, o'xshatish va qiyoslar silsilasi o'ziga xos, yangicha. Shoir har san'atning, har bir detalning, ungacha ilg'amagan qirralarini, borilmagan ma'naviy hudud kengliklarini kashf etishga harakat qiladi. Ogahiy lirikasining, umuman Ogahiy ijodining salmoqli qismini ishq-muhabbat mavzusi, oshiq va ma'shuqa obrazlari, bular orqali kishining tabiiy tuyg'usi, ishq haqidagi fikrlari egallaydi. Ogahiy lirikasida sevgi bilan bog'liq bo'lgan har qanday tuyg'u kechinmalar asosan ikki obraz: oshiq va ma'shuqa obrazlari orqali ifodalanadi. Bu obrazlar oshiqning, shu bilan birga, shoirning bu masalaga munosabati, oshiqning ishq bilan bog'liq bo'lgan turli kechinmalari: visol, hijron, firoq, rashq kabi tuyg'ularini ifodalash yo'sinida ko'rinadi.

Ey, Sho'x, ko'z-u qoshinga olam gado, man ham gado,

La'li labi durposhinga olam gado, man ham gado.

Ey sho'x yor sening ko'z va qoshingga olam gado bo'ldi, men ham gado bo'ldim, laldek labingga olam gado men ham gado bo'ldim. Bu misralarda ey sho'x so'zi nido san'atini yuzaga keltirishga xizmat qiladi, baytning oxirida esa takrir (Takrir. Takrorga tayangan she'riy san'at. "Takrorlash" ma'nosini beradi. Asosan takror baytdagi ta'kidni ifodalash uchun ishlatiladi) san'ati qo'llangan.

Bu baytimizda mumtoz adabiyotimizda an'anaviy usul bo'lgan labni la'l (qimmatbaho qizil rangli tosh) ga o'xshatadi. La'li labi so'zlari tashbeh ya'ni o'xshatish san'atini namoyon qilgan. Tashbeh hozirgi adabiyotshunoslikda o'xshatish deb yuritiladi. U shunday san'atki, unda so'zlarda ifodalangan ikki yoki undan ortiq narsa va hodisa, xususiyatlar o'rtasida mavjud bo'lgan o'xshashlik, sifat va belgidagi umumiylik qiyoslanadi, o'zaro solishtiriladi, tasvirlanayotgan narsa-hodisaning ayrim xususiyati yorqin, chuqurroq va ta'sirliroq ochib beriladi.

Gohi qapog'ing jon olur, gohi qoshing yag'mo solur,
Bo'yla qapog'-u qoshinga olam gado, man ham gado.

Gohi sening qapoqing jon oladi, goh qoshing yag'mo soladi, sening qapoqing va qoshingga olam ham men ham gado bo'ldim. Qapoq, qosh so'zlari tanosub san'atini yuzaga keltiradi. Tanosub -bir guruhga mansub so'zlarni baytda qo'llanishi.

Qadd-u labing fosh-u nihon, eldin olur tob-u tavon,
Ushbu nihon-u foshinga olam gado, man ham gado.

Sening qadding va labing yashirin va ochiq, eldan oladi tovon, Shu yashirin va ochiqlikiga olam gado men ham gadoman. Bu yerda fosh -u nihon-nihon-u-fosh so'zlari tardi aks san'atini yuzaga keltiradi.

Tardi aks so'z takroriga bag'ishlangan lafziy san'atlardan hisoblanadi. "Tard"ning ma'nosi "qaytarib berish", "qochirish", "uzoqlashtirish" demakdir. Aks esa "zid", "teskari", "chappa" ma'nolarini bildiradi. Tardi aks va aks san'atlaridagina so'zlarning birinchi joylashish tartibi keyingi misrada almashib keladi. Tardi aksda takrorlangan so'zlarning o'rni qat'iy emas, unda takrorlanayotgan so'zlarning miqdori ikki yoki undan ortiq bo'lib, ular o'rinlarini almashtirgan holda qo'llangan bo'lishlari shartdir deb yuritiladi.

Boshdin ayoqing jon erur, jonlar sanga qurbon erur,
Jono, ayoq-u boshinga olam gado, man ham gado.

Boshingdan oyoqinggacha jonni olguvchi, jonlar sanga qurbon, sening oyoq va boshingga olam gado men ham gado. Bosh oyoq, jon so'zlari tanosub va takrir san'ati ham bor.

Har necha otsang o'q-u tosh, aylab g'azab olamg'a fosh,
Bo'lg'usi o'q-u toshinga olam gado, man ham gado.

Har qancha otsang g'azab bilan olamga o'q va tosh fosh bo'ladi, keyingi bo'lg'usi o'q va toshingga olam gado men ham gadoman.

Jonlarda fikri surating, ko'zlarda naqshi qomating
Suratgar-u naqqoshinga olam gado, man ham gado.

Jonlarda sening fikring surati, ko'zlarida sening naqshli qomating, suratgar va naqqoshlaringga olam gado, men ham gadoman.

O'n to'rtin yoshing o'tub, husning jahonni yorutub,
Bu husning-u bu yoshingga olam gado, man ham gado.

O'n to'rt yoshdan o'tib, sening husning jahonni yoritib, bu husning va bu yoshingga olam gado men ham gadoman

Davlat sanga yo'ldosh erur, lutfi xudo qo'ldosh erur,
Yo'ldoshing-u qo'ldoshingga olam gado, man ham gado.

Davlat senga yo'ldosh bo'ldi, Xudo seni o'z lutfi bilan qo'lladi, Yo'ldoshing va qo'ldoshingga olam gado men ham gadoman.

Oh-u yoshingga, Ogahiy, rahm etti ul xo'blar shahi,

Ta'siri oh-u yoshinga olam gado, man ham gado

Oh-u yoshingga Ogahiy, rahm etib xo'blar shohi, ta'siri oh va yoshingga olam gado men ham gadoman.

Ogahiyning ushbu g'azalida yorning portretini tasvirlab beradi. Uning chiroyiga butun olam gadolikini tasvirlaydi. Ozi ham yoriga gadolikini aytadi. Mashuqa muhabbati javobsiz. U shunday bo'lsa ham yoriga intiladi. Undan umid qiladi. Yorning labini qimmatbaho la'l toshiga o'xshatadi. Yoning qapog'i jonni oladi qoshi ko'ngillarga yag'mo soladi. Uning qopog'i va qoshiga olam va yorning o'zi gado bo'ladi. Song yorning qaddi va labi xuddi fosh etuvchiga o'xshatadi. Yorning boshidan oyoqigacha jonni olguvchi deya ta'riflanadi. Jonlar unga qurbonlikini ta'riflaydi va olam va o'zi gado bo'layotganini aytadi. Yori har qancha g'azab bilan o'q va tosh otsa olamga ham barbir butun olam va men ham yana gado bo'laman. Boshqa jonlarda sening sur'ating naqshing. O'n to'rt yoshdan o'tib sening husning olamni yoritdi Davlat senga yo'ldosh bo'ldi Xudo seni o'z lutfi bilan siyladi. Sening oh va yoshingga butun olam gado bo'ldi men ham gadoman deydi.

Tasavvuriy ma'noda esa bu yerda yor Alloh unga intiladi. Allohni jamoliga yetishishni orzu qiladi. Alloh shu yori orqali uni ko'ngliga ishqni joylagan. Allohning vaslia uni ko'rishga butun olam gadolikini tasvirlaydi shu asnoda o'zi ham shu gadolardan bo'lishligini tilaydi

G'azalda oshiqning o'z yoriga - ma'shuqasiga bo'lgan muhabbati samimiy, ham nihoyatda chuqur ekanligi tasvirlangan. Oshiqning tuyg'ulari, orzulari nihoyat darajada tabiiy, bu tufayli o'quvchiga chuqur ta'sir qiladi. Bu tabiiy va reallik g'azalga uzoq umr baxsh etadi. Shoir merosidagi barcha fikr va g'oyalar ishq tushunchasi bilan chambarchas bog'liq.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati.

- [1] Hojiahmedov A. She'r san'atlarini bilasizmi? Toshkent, Sharq nashriyoti. 1999. 94
- [2] Abdullayev V. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, O'qituvchi nashriyoti, 1964. B-347- 376
- [3] Adizova I. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. Toshkent. Fan nashriyoti. 2009. B-221-232
- [4] Navoiy asarlar lug'ati. Alisher Navoiy asarlarining o'n besh tomiligiga ilova. Toshkent. G'ofur
- G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1972. 782
- [5] Ogahiy she'riyatidan. Toshkent. 1983. 120 b.
- [6] Majidiy R. Ogahiy lirikasi. Toshkent. O'zbekiston FA nashriyoti. 1953. 238
- [7] Munirov Q. Ogahiy. Toshkent, O'zbekiston FA nashriyoti. 1969. 54b
- [8] Adizova I. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. Toshkent. Fan nashriyoti. 2009. 22b
- [9] Mallayev M., Karimov K., Ismatov I. O'zbek adabiyoti tarixi. O'qituvchi. 1982